O‘ZBEKISTON TASHQI SAVDO AYLANMASINING STATISTIK TAHLILI (2019–2025)

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
«Moliya» fakultiteti talabasi
Ergashov Davronbek Muzaffar o’g’li
E-mail: davronbekergashov007@gmail.com
Tel: +998930428981
Ilmiy Rahbar: **Shakirova Nigora Axralovna**
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
PhD, dotsent, Iqtisodiy statistika kafedrasi
Tel: +998943640050
E-mail: shakirova0130@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-5025-4764

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining 2019–2025 yillardagi tashqi savdo aylanmasi tavsifiy statistika usullari yordamida tahlil qilingan. Tadqiqotda arifmetik o‘rtacha, median, standart og‘ish, variatsiya koeffitsiyenti, geometrik o‘rtacha o‘sish sur'ati, chiziqli trend va z-ball usullari qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tashqi savdo aylanmasi 2019–2025 yillarda 42,2 mlrd dollardan 81,2 mlrd dollarga yetgan, biroq salbiy savdo balansi barqaror o‘sib, 2023-yilda 13,7 mlrd dollarga yetgan. Eksport geometrik o‘rtacha yillik 11,2 foizga o‘sgan bo‘lsa, import 11,8 foizga o‘sgan, bu esa tarkibiy import qaramligini tasdiqlaydi. 2020-yildagi COVID-19 ta'siridagi pasayish statistik autlayer sifatida aniqlangan.

Kalit so‘zlar: tashqi savdo aylanmasi, eksport, import, savdo balansi, tavsifiy statistika, variatsiya koeffitsiyenti, chiziqli trend, O‘zbekiston

Abstract. This article analyses the foreign trade turnover of the Republic of Uzbekistan for 2019–2025 using descriptive statistics methods. The study applies

the arithmetic mean, median, standard deviation, coefficient of variation, geometric mean growth rate, linear trend and z-score methods. Results show that trade turnover grew from USD 42.2 bn to USD 81.2 bn, while the negative trade balance persistently widened, reaching USD 13.7 bn in 2023. Exports grew at a geometric mean of 11.2 % per annum versus 11.8 % for imports, confirming structural import dependency. The COVID-19-induced decline in 2020 is identified as a statistical outlier.

Keywords: foreign trade turnover, exports, imports, trade balance, descriptive statistics, coefficient of variation, linear trend, Uzbekistan

1. KIRISH

Tashqi savdo har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston uchun tashqi savdo ayniqsa muhim: mamlakatning iqtisodiy islohotlari doirasida 2017-yildan boshlab valyuta bozori liberallashtirildi, bojxona tariflari qayta ko‘rib chiqildi va eksportni rag‘batlantirish dasturlari joriy etildi [1].

2019–2025 yillarda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi deyarli ikki baravar oshdi: 42,2 mlrd dollardan 81,2 mlrd dollarga yetdi [2; 3]. Biroq bu o‘sish bilan birga savdo defitsiti ham barqaror ravishda kengayib bordi. 2023-yilda salbiy savdo balansi 13,7 mlrd dollarga yetdi, bu esa iqtisodiyotning import texnologiya va jihozlarga yuqori qaramligi bilan izohlanadi [4].

Jahon Banki ma'lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonning ochiqlik darajasi (savdo aylanmasi / YaIM nisbati) 2019-yildagi 60 foizdan 2024-yilda taxminan 54 foizga tushgan, bu qisman YaIM o‘sishining aylanma o‘sishidan tezroq bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zolik jarayonini faol davom ettirmoqda va bu jarayon savdo tartiblarini yanada liberallashtirishi kutilmoqda [13].

Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekistonning 2019–2025 yillardagi tashqi savdo aylanmasi dinamikasini tavsifiy statistika usullari yordamida tahlil qilish, asosiy tendentsiyalarni aniqlash va savdo tuzilmasidagi o‘zgarishlarni baholash.

Tadqiqotda quyidagi ishchi farazlar ilgari surilgan:

H1: Tashqi savdo aylanmasi o‘rganilayotgan davrda barqaror o‘sish tendentsiyasiga ega, ya'ni chiziqli trend koeffitsiyenti musbat va statistik jihatdan ahamiyatli ($R^2 > 0{,}70$).

H2: Import o‘sish sur'ati eksport o‘sish sur'atidan yuqori bo‘lib, bu savdo defitsitining kengayishiga olib kelgan.

H3: COVID-19 pandemiyasi tashqi savdo aylanmasida statistik autlayer hosil qilgan, ya'ni 2020-yil ko‘rsatkichi $|z| > 1{,}5$ chegarasini kesib o‘tgan.

2. MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotda O‘zbekiston Statistika agentligi, Markaziy bank, Kun.uz va Interfax xabar agentliklari ma'lumotlari asosida 2019–2025 yillar bo‘yicha yillik eksport, import va tashqi savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari to‘plangan [2–8]. Barcha raqamlar AQSh dollarida ifodalangan.

Tadqiqotda quyidagi tavsifiy statistika usullari qo‘llanilgan:

Arifmetik o‘rtacha: $\bar{x} = (1/n) \sum x_i$

Median: $Me = x_{(n+1)/2}$ *(toq n uchun)*

Standart og‘ish (tanlama): $s = \sqrt{[\sum (x_i - \bar{x})^2 / (n - 1)]}$

Variatsiya koeffitsiyenti: $CV = (s / \bar{x}) \times 100\ \%$

Geometrik o‘rtacha o‘sish sur'ati: $g = (x_n / x_1)^{1/(n-1)} - 1$

Chiziqli trend: $\hat{y} = a + bt,\ b = \sum (t_i - \bar{t})(y_i - \bar{y}) / \sum (t_i - \bar{t})^2$

Determinatsiya koeffitsiyenti: $R^2 = 1 - SS_{res} / SS_{tot}$

Z-ball (standartlashtirilgan qiymat): $z_i = (x_i - \bar{x}) / s$

Tahlil quyidagi bosqichlardan iborat: (1) yillik eksport va import qatorlari uchun markaziy tendentsiya va tarqalish ko‘rsatkichlari hisoblanadi; (2) geometrik o‘rtacha orqali o‘rtacha yillik o‘sish sur'ati aniqlanadi; (3) chiziqli trend tenglamasi

quriladi va R^2 orqali moslik baholanadi; (4) z-ball usuli orqali statistik autlayerlar aniqlanadi; (5) savdo hamkorlari va tovar tuzilmasi tahlil qilinadi.

1-jadval. O‘zbekistonning tashqi savdo ko‘rsatkichlari, 2019–2025 (mlrd AQSH dollari)

Yil	Eksport	Import	Aylanma	Savdo balansi
2019	17,9	24,3	42,2	–6,4
2020	15,1	21,2	36,3	–6,1
2021	16,7	25,5	42,2	–8,8
2022	19,3	30,7	50,0	–11,4
2023	24,4	38,1	62,6	–13,7
2024	26,9	39,0	65,9	–12,1
2025	33,8	47,3	81,2	–13,5


Manba: O‘zbekiston Statistika agentligi, Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [2–8].

3. NATIJALAR

3.1. Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

2019–2025 yillarda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 42,2 mlrd dollardan 81,2 mlrd dollarga yetdi, ya'ni 1,92 baravar oshdi (1-jadval). Geometrik o‘rtacha yillik o‘sish sur'ati 11,5 foizni tashkil etdi. Chiziqli trend tenglamasi: $\hat{y} = 33{,}0 + 6{,}68t$ (mlrd \$, t = 0 da 2019-yil), $R^2 = 0{,}86$. Bu natija H1 farazni tasdiqlaydi: aylanma barqaror chiziqli o‘sish tendentsiyasiga ega.

Biroq bu o‘sish bir tekis bo‘lmagan. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi ta'sirida aylanma 14,0 foizga qisqargan bo‘lsa, 2023-yilda 25,2 foizga o‘sish qayd etildi. Yillik o‘sish sur'atlari qatorining variatsiya koeffitsiyenti 118,4 foizni tashkil etadi, bu esa qatorning yuqori o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi.



1-rasm. O‘zbekistonning eksport va import dinamikasi, 2019–2025 (mlrd $)

Manba: 1-jadval asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3.2. Tavsifiy statistika natijalari

Eksport 7 yillik davr davomida o‘rtacha 22,0 mlrd dollarni, import esa 32,3 mlrd dollarni tashkil etdi (2-jadval). Eksport va import orasidagi 10,3 mlrd dollarlik farq savdo defitsitining tarkibiy xususiyatini ko‘rsatadi. Eksportning variatsiya koeffitsiyenti (30,4 %) importnikiga (28,2 %) nisbatan yuqori bo‘lib, eksport import tarkibiga qaraganda ko‘proq tebranishga duchor bo‘lgan.

Eksportning medianasi (19,3 mlrd $) arifmetik o‘rtachadan (22,0 mlrd $) 2,7 mlrd dollarga past. Bu taqsimotning o‘ng tomonga cho‘zilganligini anglatadi: so‘nggi yillardagi tez o‘sish o‘rtachani medianga nisbatan yuqori tortgan.

Geometrik o‘rtacha o‘sish sur'atiga ko‘ra, import (11,7 %/yil) eksportga (11,2 %/yil) nisbatan 0,5 foiz bandga tezroq o‘sgan. Natijada savdo defitsiti 2019-yildagi 6,4 mlrd dollardan 2023-yilda 13,7 mlrd dollarga kengaydi. Bu H2 farazni tasdiqlaydi: import o‘sishi eksport o‘sishidan ustun kelmoqda.

2-jadval. Tashqi savdo ko‘rsatkichlarining tavsifiy statistikasi

Ko‘rsatkich	Eksport	Import	Aylanma
Arifmetik o‘rtacha, mlrd $	22,0	32,3	54,3
Median, mlrd $	19,3	30,7	50,0


Ko‘rsatkich	Eksport	Import	Aylanma
Standart og‘ish, mlrd $	6,69	9,12	15,6
Variatsiya koeffitsiyenti, %	30,4	28,2	28,7
Geometrik o‘rtacha o‘sish, %/yil	11,2	11,7	11,5
Chiziqli trend koeff. (b), mlrd $/yil	+2,82	+3,86	+6,68
Determinatsiya (R^2)	0,83	0,87	0,86

Manba: 1-jadval ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

3.3. Savdo balansi va eksport tarkibi

Savdo defitsitining yagona pasayishi 2024-yilda kuzatildi: deficit 12,1 mlrd dollarga tushdi. Buning asosiy sababi oltin eksportining keskin o‘sishi bo‘ldi: 2024-yilda oltin jahon narxining rekord darajaga ko‘tarilishi fonida O‘zbekistonning oltin eksporti sezilarli ortdi. 2025-yilda oltin eksporti 9,9 mlrd dollarga yetib, jami eksportning 29,3 foizini tashkil etdi [3].

Shu bilan birga, import tarkibida mashina va jihozlar, energiya resurslari va sanoat xom ashyosi katta ulushni egallaydi. Bu esa mamlakatning industrializatsiya jarayonidagi investitsion import ehtiyojini aks ettiradi.



2-rasm. Savdo balansi va aylanma dinamikasi, 2019–2025 (mlrd $)

Manba: 1-jadval asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3.4. Savdo hamkorlari tuzilmasi

O‘zbekistonning asosiy savdo hamkorlari tuzilmasi 3-jadvalda keltirilgan. 2024-yil yanvar–sentyabr davrida Xitoy (18,4 %) va Rossiya (17,8 %) eng yirik savdo hamkorlari bo‘lib qoldi. Ikki mamlakat birgalikda umumiy aylanmaning 36,2 foizini tashkil etdi.

Qozog‘iston (6,1 %) va Turkiya (4,5 %) uchinchi va to‘rtinchi o‘rinni egalladi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, savdo hamkorlari soni tobora kengayib bormoqda: 2023-yilda O‘zbekiston 198 ta mamlakat bilan savdo aloqalarini amalga oshirgan [10].

Biroq eksport tarkibida oltin va xom ashyoning yuqori ulushi saqlanmoqda. 2025-yilda faqat oltin eksporti 9,9 mlrd dollarga yetdi, bu esa jami eksportning deyarli uchdan birini tashkil etadi [3]. Bu xom ashyo qaramligi iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan diversifikatsiya zarurligini ko‘rsatadi.

3-jadval. O‘zbekistonning asosiy savdo hamkorlari, 2024-yil yanvar–sentyabr (mlrd AQSH dollari)

O‘rin	Mamlakat	Aylanma, mlrd $	Ulush, %
1	Xitoy	9,0	18,4
2	Rossiya	8,7	17,8
3	Qozog‘iston	3,0	6,1
4	Turkiya	2,2	4,5
5	Janubiy Koreya	1,5	3,1
6	Turkmaniston	0,87	1,8
7	Frantsiya	0,86	1,8
8	Germaniya	0,86	1,8
9	Afg‘oniston	0,76	1,6
10	AQSh	0,67	1,4
–	Boshqalar	20,51	41,7
–	Jami	48,9	100,0

Manba: O‘zbekiston Statistika agentligi [9].

3.5. Autlayer tahlili

Z-ball usuli yordamida yillik o‘sish sur'atlari qatorida autlayer tahlili o‘tkazildi. O‘sish sur'atlari qatori: –14,0; +16,3; +18,5; +25,2; +5,3; +23,2 foiz. Ularning arifmetik o‘rtachasi 12,4 foiz, standart og‘ishi 14,7 foiz.

2020-yilning o‘sish sur'ati (–14,0 %) uchun z-ball –1,80 ni tashkil etdi, bu |z| > 1,5 chegarasini kesib o‘tgan va statistik autlayer hisoblanadi. Boshqa hech bir yilning o‘sish sur'ati bu chegarani kesib o‘tmagan. Masalan, eng yuqori o‘sish ko‘rsatgan 2023-yilning z-balli +0,87 bo‘lib, chegara ichida qoldi.

Bu natija H3 farazni tasdiqlaydi: COVID-19 pandemiyasi tashqi savdo dinamikasida yagona statistik autlayer hosil qilgan. 2020-yilning salbiy ta'siri asosan transport yo‘llarining yopilishi, qo‘shni mamlakatlar bilan chegaralarning cheklanishi va ishlab chiqarish to‘xtashi bilan bog‘liq bo‘lgan [6]. Diqqatga sazovor jihati shundaki, 2021-yilda aylanma deyarli to‘liq tiklandi va 2019-yil darajasiga qaytdi (42,2 va 42,1 mlrd $), bu esa iqtisodiyotning tashqi shokka nisbatan bardoshliligini ko‘rsatadi.

4. MUHOKAMA

Olingan natijalar O‘zbekiston tashqi savdosidagi bir nechta muhim tendentsiyalarni ochib beradi. Birinchidan, 2019–2025 yillardagi o‘rtacha yillik 11,5 foizlik o‘sish sur'ati mamlakatning jahon iqtisodiyotiga tobora faol integratsiyalashayotganini tasdiqlaydi. Bu 2017-yildan boshlab olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar — valyuta liberalizatsiyasi, WTO ga qo‘shilish jarayoni va bojxona tariflarini optimallashtirish natijasidir [1].

Ikkinchidan, savdo defitsitining barqaror o‘sishi import tarkibida investitsion xarakterga ega tovarlarning — mashina va jihozlar, transport vositalari, sanoat xom ashyosi — katta ulush egallashini ko‘rsatadi. Bu industrializatsiya jarayoniga xos holat bo‘lib, Janubiy Koreya va Xitoy ham rivojlanishning dastlabki bosqichlarida shunday tajribani boshdan kechirgan [11].

Uchinchidan, eksportning oltin va xom ashyoga yuqori qaramligi iqtisodiy xavfsizlik uchun xavf tug‘diradi. 2025-yilda faqat oltin eksportining 29,3 foizlik ulushi shuni ko‘rsatadiki, jahon oltin narxining pasayishi eksport daromadlarini keskin qisqartirishi mumkin. Shu sababli eksportni diversifikatsiya qilish — tayyor sanoat mahsulotlari, IT-xizmatlar va qayta ishlangan qishloq xo‘jalik mahsulotlari ulushini oshirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda [12].

To‘rtinchidan, Xitoy va Rossiyaning savdo aylanmadagi yetakchi o‘rni (birgalikda 36,2 %) ham imkoniyat, ham xavf hisoblanadi. Savdo hamkorlarining diversifikatsiyasi — Janubiy Koreya, Turkiya, Yevropa Ittifoqi va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarni mustahkamlash iqtisodiy barqarorlikni oshiradi.

Beshinchidan, 2024-yilda savdo defitsitining nisbatan qisqarishi (13,7 mlrd dan 12,1 mlrd dollarga) asosan oltin narxining rekord darajaga ko‘tarilishi bilan bog‘liq. Oltin eksportining ulushi 2025-yilda 29,3 foizga yetganligi sababli, oltin narxidagi istiqboldagi o‘zgarishlar savdo balansiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Bu esa narxga bog‘liq xavfni boshqarish zaruratini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, tahlil nominal AQSh dollarida olib borilgan va inflyatsiya hamda valyuta kursidagi o‘zgarishlar hisobga olinmagan. Shuningdek, 7 yillik qator qisqa bo‘lib, uzoq muddatli tsiklik o‘zgarishlarni to‘liq qamrab olmaydi. Kelgusida real qiymatdagi savdo ko‘rsatkichlari va tarmoq darajasidagi dekompozitsiya tahlillari o‘tkazilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

5. XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2019–2025 yillarda 42,2 mlrd dollardan 81,2 mlrd dollarga yetdi; geometrik o‘rtacha yillik o‘sish sur'ati 11,5 foizni tashkil etdi; chiziqli trend $R^2 = 0,86$ bilan barqaror o‘sish tendentsiyasini tasdiqlaydi (H1 tasdiqlandi).

2. Import geometrik o‘rtacha 11,7 foiz/yilga, eksport esa 11,2 foiz/yilga o‘sgan; natijada savdo defitsiti 6,4 mlrd dollardan 13,7 mlrd dollarga kengaydi (H2 tasdiqlandi).

3. 2020-yildagi COVID-19 ta'siridagi pasayish (–14,0 %, z = –1,80) yagona statistik autlayer sifatida aniqlandi (H3 tasdiqlandi).

4. Eksportning oltin va xom ashyoga yuqori qaramligi (2025-yilda 29,3 %) va savdo hamkorlarining kontsentratsiyasi (Xitoy + Rossiya = 36,2 %) iqtisodiy barqarorlik uchun xavf omillari hisoblanadi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Eksport diversifikatsiyasi: tayyor sanoat mahsulotlari, IT-xizmatlar va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari eksportini rag‘batlantirish orqali oltin va xom ashyoga qaramlikni kamaytirish lozim.

2. Savdo hamkorlari geografiyasini kengaytirish: Janubi-sharqiy Osiyo, Yevropa Ittifoqi va Afrika mamlakatlari bilan savdo aloqalarini faollashtirish Xitoy va Rossiyaga ortiqcha qaramlikni kamaytiradi.

3. Import o‘rnini bosish strategiyasi: mahalliy sanoat salohiyatini rivojlantirish orqali investitsion import ehtiyojini bosqichma-bosqich qisqartirish va savdo defitsitini nazorat qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning tashqi savdo sektori so‘nggi yillarda sezilarli o‘sish ko‘rsatdi, biroq tarkibiy muammolar — savdo defitsiti, xom ashyo qaramligi va hamkorlar kontsentratsiyasi — hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalar bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-son Farmoni «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida».
2. O‘zbekiston Statistika agentligi. Tashqi savdo press-relizi, 2022-yil dekabr. — stat.uz.

3. Kun.uz. Uzbekistan’s foreign trade tops $81bn in 2025 as gold exports surge. — 2026-yil, yanvar.
4. Interfax. Uzbekistan’s foreign trade turnover rises 23.9 % in 2023. — 2024-yil, yanvar.
5. Kun.uz. Uzbekistan’s foreign trade turnover hit $66 billion in 2024. — 2025-yil 21-yanvar.
6. Kun.uz. Uzbekistan’s FTT dropped by $5.5 bn in 2020. — 2021-yil, fevral.
7. Kun.uz. Foreign trade turnover of Uzbekistan at $42.1 billion in 2021. — 2022-yil, yanvar.
8. Kun.uz. MIFT sums up results of foreign trade activities for 2019. — 2020-yil, yanvar.
9. Kun.uz. Uzbekistan’s top 10 trade partners for 2024: China and Russia top the list. — 2024-yil, oktabr.
10. Kun.uz. Uzbekistan conducted trade relations with 198 countries in 2023. — 2024-yil, fevral.
11. Krugman, P., Obstfeld, M. & Melitz, M. (2018). International Economics: Theory and Policy. 11th ed. Pearson.
12. Kun.uz. Uzbekistan’s foreign trade report for H1 2024: export declines in key sectors, import growth in energy and machinery. — 2024-yil, iyul.
13. World Bank. Uzbekistan Country Overview 2024. — worldbank.org.
14. Elgar, E. (2020). Economic Diversification in Resource-Rich Countries. Edward Elgar Publishing.